



THE ROLE AND PARTICIPATION OF POLITICAL PARTIES IN THE PARLIAMENT

Maqsad Isabayev

Researcher, Doctor of Philosophy (PhD) in Political Science

*Institute for the Study of Youth Issues and the Training of Prospective Personnel
Tashkent, Uzbekistan*

E-mail: Maksfind_22@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: parliament, political party, deputy, election, faction, Legislative Chamber, law, parliamentary hearing, deputy's request.

Received: 02.03.25

Accepted: 04.03.25

Published: 06.03.25

Abstract: This article examines the number of seats held by political parties in the parliament, their participation in the law-making process, and the role of factions. It also describes the relations of deputies with political parties, cooperation with the media, and the experiences of foreign countries in the activities of political parties in parliament.

SIYOSIY PARTIYALARNING PARLAMENTDAGI ROLI VA ISHTIROK HOLATI

Maqsad Isabayev

tadqiqotchisi, siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

*Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti
Toshkent, O'zbekiston*

E-mail: Maksfind_22@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: parlament, siyosiy partiya, deputat, saylov, fraksiya, Qonunchilik palatasi, qonun, parlament eshituvi, deputat so'rovi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada siyosiy partiyalarning parlamentdagi saylvoda egallagan deputatlik o'rinlari, ularning qonun qabul qilish jarayonidagi ishtiroki, fraksiyalarni roli tadqiq etilgan. Shuningdek, deputatlarning siyosiy partiyalar bilan aloqalari, OAVlar bilan hamkorligi va siyosiy partiyalarning parlamentdagi faoliyatiga doir xorijiy mamlakatlarning tajribalari bayon etilgan.

РОЛЬ И УЧАСТИЕ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПАРТИЙ В ПАРЛАМЕНТЕ

Мақсад Исабаев

Исследователь, доктор философии (PhD) в области политических наук

*Института изучения проблем молодежи и подготовки перспективных кадров
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: парламент, политическая партия, депутат, выборы, фракция, Законодательное собрание, закон, парламентские слушания, парламентское расследование.

Аннотация: В данной статье изучаются места депутатов политических партий в парламенте, их участие в законотворческом процессе, роль фракций. Также описаны отношения депутатов с политическими партиями, сотрудничество со средствами массовой информации, опыт зарубежных стран относительно деятельности политических партий в парламенте.

Kirish. O‘zbekistondagi siyosiy tizimning samarali ishlashi, ayniqsa, parlamentning faoliyatini yaxshilash, aholining davlat organlariga bo‘lgan ishonchini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Parlamentda faoliyat yuritayotgan deputatlar, ularning partiyalar bilan aloqalari va deputat so‘rovlari kabi jarayonlar siyosiy tizimning dinamikasini shakllantiradi. Deputatlarining so‘rovlarining kamayishi, siyosiy partiyalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar va partiyalar tomonidan o‘zini ko‘rsatish strategiyalari orqali parlamentning ish faoliyatiga ta’sir etishi borasidagi masalalar, O‘zbekistonning siyosiy tizimi va uning rivojlanishiga qaratilgan dolzarb mavzulardan biridir. Ushbu tadqiqot ishida deputat so‘rovlari va siyosiy partiyalarning parlamentdagi faoliyatini tahlil qilish, ularning o‘zaro aloqalarini baholash va bu jarayonlarning siyosiy tizimga qanday ta’sir etishini ko‘rib chiqamiz.

Siyosiy partiyalar zamonaviy demokratik jamiyatlar siyosiy hayotini tashkil qilishning asosiy konstitutsiyaviy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Aynan partiyaviy tizim tufayli demokratiyaning siyosiy plyuralizm, qonun ustuvorligi, imkoniyatlar tengligi kabi tamoyillarini o‘zida mujassam etgan siyosiy partiyalar va ularning vakillari o‘rtasida doimiy muloqot ta’minlanadi[1].

O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimini shakllantirish va faoliyati samaradorligini oshirish borasida yetarlicha huquqiy asoslar yaratildi deyishimiz mumkin. Amaldagi siyosiy partiyalarning mustaqillik yillardagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga bo‘lib o‘tgan saylovlarda ishtiroki hamda saylovlar jarayonida orttirilgan o‘ziga xos tajribasi ham O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining rivojiga ijobiy ta’sir etdi.

Biroq, bugungi kunda mamlakatda siyosiy partiyalar faoliyati va ularning fuqarolik jamiyati institutiga aylanishi bilan bog‘liq bir qator muammolar mavjud. Ko‘ppartiyaviylik prinsipi hamda umume’tirof etilgan xalqaro norma va standartlarga muvofiq bo‘lgan saylov tizimi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasida ko‘ppartiyaviylikning amalda shakllanishi shunga olib keldiki, bu jarayonni maxsus huquqiy tartibga solish zaruriyati paydo bo‘ldi.

Tadqiqotning usullari. Ushbu maqolada siyosiy partiyalar obyekt sifatida tadqiq etilib, unda kuzatish va kvalitatif tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Natijalar. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunning 23-moddasida[4], O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to‘g‘risida”gi Qonun 9-moddasida[3], “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonunning 13-moddasida[1] siyosiy partiyadan ko‘rsatiladigan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini Qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida deputatlik birlashmasi (fraksiya) tuzishi mumkinligi belgilangan.

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to‘g‘risida”gi qonunning 9-moddasi ikkinchi qismidagi “kamida to‘qqiz nafar” degan so‘zlar O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 18 dekabrda qonuni[6] bilan “kamida besh nafarga” degan so‘zlar bilan almashtirilib, endilikda 5 nafar deputat bilan fraksiya tuzish vakolati berilgan.

Lekin, siyosiy partiyadan Qonunchilik palatasiga ko‘rsatilgan nomzodlardan agarda 5 ta deputati saylanmay qolsa, ya‘ni 4 yoki 3 ta deputati bo‘lsa, unda ular qanday faoliyat yuritishi mumkinligi to‘g‘risidagi aniq norma aks ettirilmagan. Bundan tashqari, mazkur qonunda fraksiya a‘zolidan chiqishni istagan deputatning keyingi maqomi haqida aniq norma mavjud emas.

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunning 25-moddasida[4], fraksiyalarning vakolatlari belgilab qo‘yilgan. Biroq, olib borilgan tadqiqot va kuzatuvlarga ko‘ra, mazkur vakolatlarni amalga oshirish tartibi va mexanizmini ochib beruvchi alohida “Siyosiy partiya fraksiyalari to‘g‘risida”gi Nizomini ishlab chiqish uchun zarurati yuzaga kelgan.

Mazkur Nizomda fraksiyaning to‘liq va qisqartirilgan nomi, tuzilishi, rais va o‘rinbosarlarini saylash tartibi, rahbar organlarini tanlash, palata majlislarida fraksiya nomidan chiqadigan shaxslarni belgilash kabi masalalar ko‘rib chiqilishi kerak.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi deputat va uni ko‘rsatgan siyosiy partiya o‘rtasidagi munosabatlarni quyidagicha tartibga solmoqda. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a‘zosining maqomi to‘g‘risida”gi Qonunning 9-moddasida[1] deputat o‘z okrugi saylovchilari, uni deputatlikka nomzod qilib ko‘rsatgan siyosiy partiya bilan aloqa bog‘lab turishi, ularning manfaatlarini ifoda etishi, saylovchilarning ishonchini oqlay olmagan deputat qonunda belgilangan tartibda chaqirib olinishi mumkinligi belgilangan. Biroq, ushbu normativ-huquqiy hujjatlarda deputatning partiya oldidagi majburiyati sifatida “siyosiy partiya bilan aloqa bog‘lab turishi, uning manfaatlarini ifoda etishi” kabi umumiy normadan tashqari boshqa aniq majburiyatlar belgilanmagan.

Muhokama. Qonunchilikda deputat deputatlikka nomzod etib ko'rsatgan siyosiy partiya bilan aloqa bog'lab turishi, ularning manfaatlarini ifoda etishi lozimligi, agar u o'z partiyasi oldida majburiyatlarini bajarmasa chaqirib olinishi mumkinligi ko'rsatilgan bo'lsa-da, ushbu norma amalda ishlagan holatlar kuzatilmagan. Bunga bir nechta sabablarni keltirish mumkin.

Tadqiqot natijasida shuni ta'kidlash joizki, birinchidan, partiya bilan aloqasini uzgan, o'z partiyasining dasturiy maqsadlarini ilgari surish bilan bog'liq vazifalarini amalga oshirishdan bo'yin tovlagan fraksiya yoki Kengashdagi o'z deputatini chaqirib olishdan partiyaning o'zi manfaatdor emas. Chunki, deputatning chaqirib olinishi partiyaning vakillik organlaridagi deputatlari sonining kamayishiga, Qonunchilik palatasidagi bir o'rinning kamayishi esa partiyaning moliyaviy ta'minotining qisqarishiga olib keladi.

Ikkinchidan, deputatni chaqirib olish bevosita yana saylovchilarning ovoz berishi (yana saylov – ortiqcha harakat va xarajat) natijalariga bog'liq. Bu o'z navbatida, partiyaning tegishli vakillik organiga bergan taklifi ta'sir kuchini kamayishi kabi holatlarga olib keladi.

Yuqoridagi holatlar, qonunchilik normalarini va xalqaro tajribani inobatga olgan holda, bu masalalarni to'g'ri normativ hujjatlar bilan mustahkamlash zarurligini ko'rsatmoqda..

Siyosiy partiyalarning rivojlanishida bevosita ularning Parlamentdagi fraksiyalari, ular o'rtasida aloqalar muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, tadqiqot jarayonida mazkur yo'nalishda ham o'z yechimini topishi lozim bo'lgan bir qator jihatlar borligi ko'zga tashlanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan mazkur sohada o'tkazilgan yig'ilishda **“siyosiy partiyalarning Qonunchilik palatasidagi fraksiyalari faoliyatini kuchaytirmasak, qonun ijodkorligi va qabul qilingan qonunlar ijrosi kutilgan natijani bermaydi”**[13] deb, alohida ta'kidlangan.

O'tgan davr mobaynida fraksiyalar faoliyatini takomillashtirish, ularning partiya va deputatlar bilan aloqasini mustahkamlash, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari va partiyalar hamkorligini kuchaytirish borasida bir qator ijobiy islohotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ayrim kamchiliklar saqlanib qolayotgani kuzatilgan.

Bevosita siyosiy partiyalarning mamlakat hayotida tutgan o'rnini mamlakatda amalga oshirilgan Parlament saylovlaridagi ishtiroki hamda egallagan deputatlik o'rinlarida ham ko'rish mumkin. Xususan, 2009, 2014, 2019 va 2024 yillarda bo'lib o'tgan saylovlar natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, parlament uchun o'tkazilgan oxirgi o'tkazilgan 4 ta saylov natijalariga ko'ra, deputatlik o'rinlari bo'yicha Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi o'z ustunligini saqlab qolmoqda.

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi va “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi esa oxirgi 2 ta saylov natijalariga ko'ra, Parlamentdagi o'z o'rnini mustahkamlab olgan bo'lsa, O'zbekiston

Xalq demokratik partiyasi esa oxirgi saylovlarda o'z deputatlik o'rnini yo'qotib bormoqda. Mazkur jarayonni quyidagi jihatlar bilan izohlash mumkin:

birinchidan, O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi va "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi tomonidan targ'ibot ishlarida zamonaviy uslublardan foydalanayotgani, mazkur partiyalar deputatlarining xalq manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan chiqishlarining aholi orasida ijobiy qabul qilinayotgani;

ikkinchidan, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining asosiy elektorati hisoblangan pedagoglar va tibbiyot hodimlarining mehnat faoliyatida mavjud muammolarning yuzaga kelishi, tarmoqlarda keng muhokama bo'lishiga qaramay, partiya tomonidan ushbu yo'nalishdagi tashabbuslarning sezilmasligida aks etmoqda;

uchinchidan, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi va "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi tomonidan mushtarak g'oyalarni ilgari surilishi, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash masalalarini davlat siyosati darajasiga olib chiqilishi, ularning davlat va jamiyat hayotidagi mavqei va ta'sirini kengayishiga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida jami 150 nafar (*O'zLiDeP – 64 nafar, Milliy tiklanish – 29 nafar, Adolat – 21 nafar, XDP – 20 nafar, Ekopartiya – 16 nafar*) deputat faoliyat olib bormoqda. Barcha siyosiy partiya o'z fraksiyasiga ega.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2023-yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonunlar soni avvalgi yillarga qaraganda bir muncha ko'paygani qayd etilgan. Masalan, 2022-yilda qabul qilinib, Senatga yuborilgan qonunlar soni 88 tani tashkil etgan bo'lsa, **2023-yilda 100 ta qonun** (jami 131 ta qonun loyihasini o'z ichiga olgan) qabul qilinib, ma'qullash uchun yuqori palataga jo'natilgan[14].

Parlamentda ko'rib chiqilgan qonun loyihalarini yillar kesimida ko'radigan bo'lsak, 2020-yilda 111 ta, 2021-yilda 126 ta, 2022-yilda 117 ta[12], 2023-yilda 131 ta qonun loyihasi Senatga yuborilgan. Yuborilgan qonun loyihalarida 2020 yilda 72 tasi, 2021-yilda 96 tasi, 2022-yilda 88 tasi, 2023-yilda 100 tasi tasdiqlangan.

Qonun ijodkorligi borasida ijobiy natijalar ko'zga tashlanayotgan bo'lsa-da, deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida kiritilgan qonun loyihalari ko'rsatkichlarini ijobiy baholab bo'lmaydi. Xususan, 2020-yilda 12 ta, 2021-yilda 12 ta, 2022-yilda 13 ta qonun loyihasi tashabbus qilingan xolos[12].

Parlament tomonidan ko'rib chiqilayotgan qonun loyihalari tashabbuskorligida Vazirlar Mahkamasining ulushi yuqoriligicha qolmoqda. Birgina 2022-yilda 96 ta qonun loyihasi Vazirlar Mahkamasi tashabbusi bilan kiritilgan.

Shu bilan bir qatorda, qonun ijodkorligi borasida siyosiy partiyalar va ularning fraksiyalari tashabbusini yetarli deb bo'lmaydi. Xususan, 2023-yilda O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi tomonidan 1 ta qonun loyihasi ishlab chiqilgan va 6 ta qonun loyihasiga hamtashabbuskor bo'lgan[8]. Ekologik partiya fraksiyasi tashabbusi bilan 3 ta qonun loyihasi ishlab chiqilib, 5 ta qonun loyihasiga hamtashabbuskor bo'lgan[9]. O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi tomonidan **2 ta qonun loyihasi** ishlab chiqilib, **3 ta qonun loyihasiga hamtashabbuskor** bo'lingan[20]. "Adolat" sosial-demokratik partiyasi fraksiyasi tomonidan **6 ta qonun loyihasiga hamtashabbuskor** bo'lingan. "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi tomonidan **6 ta qonun loyihasiga hamtashabbuskor** bo'lingan.

Partiya fraksiyalari tomonidan tashabbus bilan ishlab chiqilgan qonun loyihalari jami 6 tani tashkil etib, Parlament tomonidan ko'rib chiqilgan jami 131 ta qonun loyihalarining 4,5 foizini tashkil etgan xolos. Ushbu holat, partiya fraksiyalarning qonun ijodkorligi va tashabbuskorligini oshirish masalasi hanuz dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolayotganini ko'rsatmoqda.

Barcha siyosiy partiyalarning ustavlarida partiyaning Qonunchilik palatasidagi fraksiyasi va hududiy vakillik organlaridagi guruhlar faoliyatini muvofiqlashtirib borish vakolati ko'rsatib o'tilgan. Bugungi kunda fraksiyalar va deputatlik guruhlari, shu jumladan ulardagi deputatlar hamkorligi asosan ularning partiyalari tomonidan amalga oshirib kelinmoqda.

Partiya fraksiyasi bilan mahalliy Kengashlar, xususan ulardagi deputatlik guruhining o'zaro hamkorligiga oid tadbirlar hamda ularning shakli va miqdori bo'yicha muayyan ma'lumotlar ko'rsatilayotgan bo'lsa-da, bu faqat qog'ozdagi sonlar ko'rsatkichi va amalda ushbu hamkorlik yetarli darajada deb bo'lmaydi.

Shuningdek, qonunchilikda ham mazkur deputatlik birlashmalari o'rtasidagi hamkorlikning qaysi tartibda, shaklda, yo'nalishda amalga oshirilishi lozimligi, bunda tegishli vakolat va huquqlarning aniq prosessual mexanizmlari belgilab qo'yilmagan.

Partiyalar manfaatlarini Qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida fraksiya hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesida va xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlarida ifodalash uchun partiya guruhlari tuzilsada, ulardagi aksariyat deputatlarning partiya, shu jumladan hududiy partiya tashkilotlari bilan hamkorligi qoniqarli ahvolda emas. Xususan:

- deputatlar partiyaning dasturiy vazifalari ijrosini ta'minlashda faol emas, ularda shaxsiy tashabbuskorlik yetishmaydi;
- ayrim deputatlar partiyaning (*rahbar organi yig'ilishi, targ'ibot*) tadbirlarida ishtirok etmaydi, bu holat ko'proq hududiy partiya tashkilotlarida uchramoqda;
- hududiy partiya tashkilotlarida har bir deputat faoliyati bo'yicha axborot olish amaliyoti tizimli yo'lga qo'yilmagan. Natijada partiya tomonidan deputatlar faoliyatiga doir hisobotni

yuritish, saylov okruglarida uchrashuvlar tashkil qilish, fuqarolar qabuli, deputat so‘rovlariga oid ma’lumotlarni shakllantirishda qiyinchiliklarga duch kelinmoqda;

– deputatning saylovchilar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha so‘rov yuborish mexanizmidan keng foydalanish, bunda aholi muammolarini hal etish orqali partiyani xalqqa yaqin tashkilotga aylantirishda partiyaning o‘z deputatlari bilan ishlashda faollik sezilmaydi.

Siyosiy partiya bilan deputat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda ayrim muammolar yuzaga kelmoqda. Tadqiqotlar aksariyat deputatlarning doimiy ish joyidagi faoliyati sababli partiya bilan hamkorligi past darajada ekanligini ko‘rsatmoqda. Bizningcha, siyosiy partiya bilan deputatning o‘zaro munosabatlariga salbiy ta’sir qiluvchi bir qator omillar mavjud:

birinchidan, deputatlikka nomzodlarning hokimlik taklifi asosida ilgari surilishi deputatlarning siyosiy partiyalar oldida emas, balki hokimlik oldida hisobdor degan fikrni shakllanishiga olib kelmoqda;

ikkinchidan, siyosiy partiyalar tomonidan deputatlar faoliyatiga doir hisobotlarni yuritish, ularning o‘z saylov okruglarida uchrashuvlar tashkil qilish, fuqarolar qabuli, deputat so‘rovi kabi faoliyatiga doir ma’lumotlarni olishda qiyinchiliklarga duch kelinmoqda;

uchinchidan, deputatlar tashkilot rahbarlar hisobotlarini eshitish, deputatlik nazoratini olib borish, murojaatlar bilan ishlash, olib borayotgan faoliyatini OAVda yoritilishini yo‘lga qo‘yish kabi masalalarda partiyaga nisbatan hisobdorligini sezmaydi, “...biz kotibiyat bilan ishlaymiz” degan tushuncha shakllanib qolgan.

Biroq, amaliyotda, oy yakuni bo‘yicha deputatning barcha majburiyatlari va amaliy ishlarining ijrosi bo‘yicha ma’lumotlarni partiya Kengashi tayyorlab kotibiyatga taqdim etib bormoqda.

Qonunchilik palatasi majlislarida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining o‘z faoliyatiga doir axborotlarini eshituvi tahlil qilinganda quyidagi jihatlar kuzatildi. Xususan, 2020-yilda 19 ta, 2021-yilda 23 ta, 2022-yilda 20 ta[11], 2023-yilda 20 ta[14] parlament eshituvlari tashkil etilgan. Ushbu jarayon 2021 yilda ko‘proq tashkil etilgani, keyingi yillardan nisbatan pasaygani kuzatilmoqda. Shuningdek, parlament eshituvi ko‘rsatkichlarining o‘rtacha 20 tani tashkil etishi, mamlakatda faoliyat ko‘rsatayotgani davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari sonidan kelib chiqadigan bo‘lsak, yetarli deb bo‘lmaydi.

Parlament so‘rovlari ham 2020-yilda 14 ta, 2021-yilda 16 ta, 2022-yilda 15 ta, 2023-yilda 15 tani tashkil etib, deyarli o‘zgarmas bo‘lib qolmoqda. So‘rovlarning soni kamayishi yoxud ijobiy tomonga o‘zgarmagan taqdirda, fuqarolar siyosiy tizimdan norozi bo‘lishi, bu esa ularning hukumatga bo‘lgan ishonchini kamaytiradi. Bizningcha, O‘zbekiston parlamentida so‘rovlarning ko‘paymayotgani siyosiy jarayonlar va jamiyatning ishonchsizligi bilan bog‘liq muammolar

sababli bo'lishi mumkin. Chunki, deputatlar faqat partiya manfaatlarini emas, balki umumxalq manfaatlarini ham ilgari surishi kerak.

Deputat so'rovlari parlamentda fuqarolar va hukumat o'rtasidagi aloqani mustahkamlashning muhim vositasi hisoblanadi. Deputat so'rovlar orqali jamiyatdagi dolzarb masalalarni ko'targan holda hukumatning javobgarligini oshiradilar. Deputat so'rovlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2020-yilda 301 ta, 2021-yilda 462 ta, 2022-yilda 310 ta, 2023-yilda 134 ta so'rov yuborilganini ko'rishimiz mumkin. Deputatlik so'rovlarining yillar kesimida tahlili keskin kamayganini ko'rish mumkin.

Deputat so'rovining kamayishini bevosita quyidagi jihatlar bilan izohlash mumkin:

birinchidan, hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etishga qaratilgan dasturlarning qabul qilinayotgani va tizimli muammolarni mahalliy hokimliklar tomonidan bartaraf etib borilayotgani;

ikkinchidan, deputatlariga murojaatlarning o'z echimini topmay qolayotgani, bu boradagi deputatlik so'rovlariga nisbatan mutasaddi tashkilotlar tomonidan munosabatning yetarli emasligi natijasida aholi orasida yuzaga kelgan ishonchsizlikning mavjudligi.

Bizningcha, so'rovlar sonining kamayishi siyosiy tizimdagi islohotlar va parlamentning samaradorligiga ta'sir qiladi. Deputat so'rovlarining qisqarishi, ayniqsa, hukumatning javobgarlikni his qilishini susaytirishi va fuqarolarni siyosiy tizimdan chetlashtirishiga olib keladi.

Shunga qaramay, siyosiy partiyalar hayotidagi rivojlanish bilan bir qatorda, ayrim tizimli muammolar hanzu saqlanib qolinayotgani, ular faoliyati uslublari, o'z xayrixohlari bilan ishlash jarayonlarida, aholining siyosiy qamrovida namoyon bo'lmoqda.

Xususan, siyosiy partiyalar nomzodlar tanlashda asosiy e'tiborni o'z elektorati vakillaridan kelib chiqishdan ko'ra, o'z hududida obro'-e'tiborga ega bo'lgan, mavqei baland nomzodlar tanlashga ko'proq e'tibor qaratmoqda. Saylovdan keyin partiyalar tomonidan deputatlarni nazorat qilish bo'yicha aniq mexanizm ishlab chiqilmagan.

Partiya va deputat hamkorligida o'tkazilgan ommaviy tadbirlarda ko'tarilgan masalalarni oxiriga yetkazmaslik partiyalarga bo'lgan ishonchni kamayishiga olib kelmoqda.

Saylovdan keyin aksariyat deputatlar o'zlarini nomzod etib ko'rsatgan partiya bilan aloqani uzib, o'z saylovchilari bilan kamdan-kam muloqot qilayotganini kuzatish mumkin. Ayniqsa, tuman kengashlari deputatlari elektorat oldida saylovoldi dasturlari ijrosi bo'yicha umuman hisobot bermay kelish holatlari mavjud.

Eng asosiy muammolardan yana biri bu haligacha siyosiy partiyalarning ijtimoiy asosi – elektorati to'liqligicha shakllantirilmagani hisoblanadi. Shuningdek, amalda siyosiy partiyalar bilan, ular o'z elektorati deya e'lon qilgan, ijtimoiy guruhi o'rtasida "qayta aloqa" tizimi mavjud emas.

Ijtimoiy hayotimizda shunday omil koʻzga tashlanadi-ki, bugungi kunda, goʻyoki siyosiy partiyalar oʻz hayotida, elektorat esa oʻz hayoti bilan yashamoqda[15].

Haqiqatdan ham yuqoridagi maʼlumotda keltirilgani kabi, nisbiy jihatdan partiyalar oʻz elektoratlari tarkibini belgilab olgan boʻlsalar-da, aniqlik kiritilmagani va bir-biriga yaqinligi koʻzga tashlanadi. Shuningdek, siyosiy partiyalarning veb-sahifalari va faoliyatlarida aynan aʼzolar bilan ishlash, ularning manfaatlarini himoya qilish, ular bilan qayta aloqa mexanizmlari ishlab chiqilmagan.

2024-yil 1-yanvar holatiga, Oʻzbekistonda siyosiy partiyaga aʼzo fuqarolar 3520 860 nafarni yoki roʻyxatga olingan saylovchilarning 18,5 foizini tashkil etgan. Shu jumladan, OʻzLiDePga 1 330 364 nafar, Ekopartiyaga 622 413 nafar, “Adolat” SDPga 592 517 nafar, OʻzXDPga 583 141 nafar, “Milliy tiklanish”DPga 392 425 nafar fuqarolar aʼzo hisoblanadi[19].

Tadqiqotimiz shuni koʻrsatmoqdaki, OʻzLiDeP hamda Ekopartiya aʼzolari va partiya faoliyatini qoʻllab-quvvatlovchilar soni barqaror ravishda oʻsib bormoqda. Qolgan siyosiy partiyalarda esa aʼzolar sonining oʻsish koʻrsatkichlari pastligi kuzatilmoqda.

“Milliy tiklanish” DP raisi partiya aʼzolari soni kam koʻrinayotganligini bevosita 2019-yilda boshlangan, barcha partiyalar aʼzolarini yagona elektron platformaga qayd etadigan tizim joriy etilishi hamda aʼzolikni asl maqsadini unutib, statistikaga moslashib qolgan tuman partiya tashkilotlarining ish falsafasi qayta koʻrib chiqilayotgani bilan izohlagan[18].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158 sonli “Oʻzbekiston-2030” strategiyasi toʻgʻrisidagi farmoniga koʻra, Yangi Oʻzbekistonni barpo etishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish maqsadida Parlament va uning organlari ish jarayonlarini raqamli transformasiya qilish, shu jumladan ular tomonidan qarorlar qabul qilish va eʼlon qilish jarayonlarini 100 foiz raqamlashtirish, saylovchilar bilan elektron muloqot qilish, deputat soʻrovini elektron tarzda yuborish va nazorat qilish imkoniyatini taʼminlash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizasiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish maqsadida vakillik organlariga saylovning aralash (majoritar-proporsional) tizimini joriy qilish kabi vazifalar belgilangan.

Belgilangan ushbu vazifalardan kelib chiqib, 2024-yilgi Parlament saylovlari aralash tarzda oʻtkazildi. Bu orqali saylovchilar endi koʻrsatilgan nomzodlar bilan birgalikda siyosiy partiyalarga ham ovoz beradilar.

Xorijiy mamlakatlar tajribalarining ayrimlarini koʻrib chiqadigan boʻlsak, partiyalar davlat va jamiyat hayotida muhim siyosiy institutga aylangani, ular faoliyatida davlat boshqaruviga taʼsir etuvchi muhim vositalar amaliyotga tatbiq etilganini koʻrishimiz mumkin.

Rossiya Federasiyasida deputatning konstitusiyaviy-huquqiy maqomini belgilashda deputatlik mandatining ikkita modeli – imperativ va erkin mandat qoʻllaniladi. Birinchi model

deputatni parlamentga ro'yxat bergan saylov korpusi, partiya, fraksiya va boshqa shaxslar tomonidan deputat ustidan nazorat qilishini nazarda tutadi. Ikkinchisi – uning to'liq erkinligi va mustaqilligini bildiradi. Ushbu modellarga muvofiq konstitusiyaviy-huquqiy maqomning mazmuni, jumladan, deputatning javobgarlik turlari va usullari shakllantiriladi. Deputatning imperativ mandati deputatning o'z vakolatlarini o'z xohishiga ko'ra amalga oshira olmasligini, o'ziga deputatlik vakolatlarini yuklagan shaxslarga bog'lovchi farmoyish va majburiyatlarga e'tibor bermasligini bildiradi.

O'zbekistonda ham, deputatlar saylangan partiyalar yoki saylovchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, ammo ular parlamentdagi faoliyatlarida mustaqil qarorlar qabul qilish huquqiga ega. Shunga qaramay, partiyalar o'rtasida koalitsiyalar tuzilishi va jamoatchilikning fikrini inobatga olish deputatlarning mas'uliyatini oshiradi.

Erkin mandat modeliga kelsa, O'zbekistonda bu modelga qisman o'xshashlik bor. Chunki, deputatlar o'z mas'uliyatlarini faqat partiyaviy va saylovchi yo'riqnomalariga asoslanib emas, balki o'zining shaxsiy fikrlariga ham tayanadilar. Shu bilan birga, deputatlarning faoliyatini jamoatchilik bilan bog'lash va ommaviy axborot vositalari orqali ularning ishini oshkora qilish, erkin va mustaqil qarorlar qabul qilish jarayonini yaxshilashda muhim o'rin tutadi.

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston siyosiy tizimida, deputatlarning hamkorlik va o'zaro murosaga tayyorligi partiyalar o'rtasida konstruktiv hamkorlikni rivojlantirish uchun zarur. Deputatlarning parlamentdagi faoliyati jamoatchilikning qiziqishlarini hisobga olish, saylovchilarga hisobot berish va ularning talablarini inobatga olishga asoslangan bo'lishi kerak. Shu tarzda, deputatlarning faoliyati nafaqat partiyalar manfaatlarini, balki umumxalq manfaatlarini ham ifodalaydi. Partiyalar o'rtasidagi hamkorlik va deputatlarning jamoatchilik bilan ishlashda shaffoflikni ta'minlash, siyosiy barqarorlikni va demokratik islohotlarni rivojlantirishda bu muhim ahamiyatga ega.

Ispaniyadagi siyosiy tizim, ayniqsa partiyalar o'rtasidagi raqobat va ularning parlamentdagi faoliyati nuqtai nazaridan, O'zbekiston siyosiy tizimi uchun muhim o'rnak bo'lishi mumkin. Ushbu tizimda saylovda g'alaba qozongan partiya hukumatni shakllantiradi va o'z saylovoldi dasturini amalga oshiradi, bu esa partiyaning o'z saylovchilari va elektorati bilan bo'lgan aloqasini mustahkamlashga yordam beradi.

Ispaniyada, partiyalar hukumatga kirish orqali o'z dasturini amalga oshirishga harakat qiladi, bu esa saylovchilar oldida partiyaning va'dalarini bajarishga bo'lgan majburiyatini oshiradi. Shuningdek, g'olib partiyaning dasturini amalga oshirishi uchun muxolifat tomonidan doimiy konstruktiv tanqid va islohotlar amalga oshirilayotganini kuzatish mumkin. Muxolifat partiyasining islohotlarga qarshi harakat qilish imkoniyati, hukumatning to'g'ri siyosat yuritishiga

turtki bo‘ladi. Chunki, ularni har doim o‘z dasturlaridan kelib chiqib, tanqid qilish va islohotlarni ko‘rib chiqish majburiyati bor.

Ushbu Ispaniya tajribasi O‘zbekiston siyosiy tizimida ham partiyalarning saylovoldi dasturlarini amalga oshirishga intilishi, muxolifatning islohotlarga qarshi konstruktiv tanqidi, siyosiy partiyalar o‘rtasidagi raqobat va hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yaponiyadagi Liberal-demokratik partiyasining harakat dasturida Yaponiyaning o‘ziga xos qiyofasini ko‘rsatadigan va dunyoga hissa qo‘shadigan yangi konstitusiyani yaratish, hukumat barcha odamlar uchun adolatli siyosat va sharoit yaratish uchun huquqiy tartibni saqlash, o‘shish strategiyalari va bandlik choralari ko‘rish, ijtimoiy xavfsizlik kabi tarmoqlarni rivojlantirish kabi vazifalarni belgilab olgan[11].

O‘zbekistonda ham yangi konstitutsiya, islohotlarni davom ettirish va mavjud tizimning yangilanishi uchun zarur. Hozirda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar, siyosiy tizimni yangilash va demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan. Shuningdek, 2021-yilda prezidentning tashabbusi bilan huquqni muhofaza qilish tizimida tub islohotlar boshlandi, bunda sud tizimini mustahkamlash, huquqni himoya qilishni takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish kabi maqsadlar ko‘zda tutilgan.

Buyuk Britaniyaning parlament tizimi, hukumat va muxolifat partiyalari o‘rtasidagi konstruktiv munosabatlarga asoslangan. Bu tizimning samaradorligi asosan siyosiy raqobat va konstruktiv tanqid orqali amalga oshiriladigan qonunchilik va siyosatni ishlab chiqish jarayonlariga bog‘liq. Muxolifat partiyalarining roli, hukumatning siyosatlarini tanqid qilish va shu orqali yangi qonunlarni ishlab chiqishda o‘z hissalarini qo‘shishdan iborat bo‘ladi. Shu bilan birga, muxolifat partiyalari o‘z saylovoldi dasturlarini doimiy ravishda yangilab, keyingi umumiy saylovlarda g‘alaba qozonish imkoniyatlarini yaxshilash uchun siyosiy strategiyalarini moslashtirib boradilar[17].

Bizningcha, Buyuk Britaniyaning partiyalar o‘rtasidagi raqobat va tanqidiy munosabatlarining samaradorligi O‘zbekiston siyosiy tizimi uchun ham foydali tajriba bo‘la oladi. Xususan, O‘zbekistonda oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar va ijtimoiy-siyosiy rivojlanish jarayonlarida muxolifatning roli hali to‘liq shakllanmagan. Lekin, partiyalar o‘rtasidagi konstruktiv dialogni rivojlantirish, hukumatning barcha qatlamlaridagi siyosatlarni muhokama qilish va yangi qonunchilikka takliflar kiritish orqali, mamlakatda yanada samarali siyosiy muhitni yaratish mumkin. Shuningdek, partiyalar o‘rtasida o‘zgaruvchan siyosiy sharoitlarga moslashish, ijtimoiy ehtiyojlarni inobatga olish va siyosiy maqsadlarni yangilash siyosiy tizimni yanada samarali qilishga yordam beradi.

Shuningdek, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlar siyosiy partiyalar faoliyatida “Aql markazlari”ni tashkil etish zamon talabi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Masalan, Buyuk Britaniyadagi siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini to'g'ri tashkil qilish uchun MakGrann, Uiver kabi tahlil markazlari xizmatlaridan va mamlakatda o'tkaziladigan so'rovlardan keng foydalanadi[16].

Ozarbayjon Respublikasida ham deputatning saylovchilar bilan aloqalari, uning jamoatchilik oldidagi javobgarligini va siyosiy tizimda xalq vakili sifatidagi roli muhim ahamiyatga ega. Xususan, xalq deputati respublika davlat hokimiyatining oliy organlaridagi xalqning vakolatli vakili sifatida o'z maqomidan fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlari kafolatini ta'minlash, ularning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish uchun foydalanadi. Saylovchilar o'z deputatlariga ko'rsatmalar beradilar. Ozarbayjon Respublikasi xalq deputati saylovchilarning topshiriqlarini bajarishga harakat qiladi. Saylovchilar ishonchini oqlamagan Ozarbayjon Respublikasi xalq deputati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda chaqirib olinishi mumkin.

O'zbekistonda ham ushbu tajribani moslashtirish orqali deputatlarning saylovchilar bilan bevosita va samarali aloqalarini mustahkamlash lozim. Ya'ni deputatlarning saylovchilar oldidagi javobgarligini kuchaytirish kerak. Saylovchilar deputatlardan o'z hududlaridagi muammolarni hal etishda faol ishtirok etishni talab etishlari, agar deputat saylovchilarining ishonchini oqlamasa, ular deputatning faoliyatini qayta ko'rib chiqish yoki uni chaqirib olish huquqiga ega bo'lishlari kerak.

Xulosa. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar o'tgan davrdagi rivojlanish tendensiyasidan kelib chiqib, ular o'rtasidagi raqobat keskin ko'rinishda bo'lmasa-da rivojlanganini ko'rish mumkin. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan Qonunchilik palatasi bilan Senatning birgalikdagi vakolatlari hamda har bir palataning alohida-alohida vakolatlari va mas'uliyat sohalari aniq belgilab berildi. Masalan, agar ilgari Konstitutsiya bo'yicha Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari 5 ta bo'lgan bo'lsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga asosan ularning soni 12 taga yetdi.

Partiyalar so'ngi o'tkazilgan Parlament saylovlari oldidan asosiy e'tiborni partiya a'zolari sonini ko'paytirishga qaratgan. Lekin, ularni a'zolikka olish jarayonida elektorat vakillarini a'zo qilishga kam e'tibor qaratilgan.

Partiyalar ustav va dasturlarida o'z maqsad va vazifalarini ifoda qilgan bo'lsa-da, ularni amalga oshirish mexanizmlari yetarli darajada yaratilmagan. Barcha partiyalarda jamiyatdagi mavqeyini saylovlarda egallagan o'rni bilan baholash holatlari mavjud. Lekin, saylangan deputatlar bilan uzviy aloqalarni o'rnatishda tizim shakllantirilmagan.

Shu bilan birgalikda, siyosiy partiyalar rahbarlarining elektoratni o'ylantirayotgan muhim masalalar bo'yicha televidenie orqali aniq va ravshan o'z pozitsiyasini bildirmayotgani, kadrlar

bilan ishlash borasidagi muammolar ham siyosiy partiyalar faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatayotganini kuzatish mumkin.

Saylovlar davri va saylovlar oralig'ida partiyalararo raqobat muhiti sezilmaydi. O'zbekistondagi siyosiy partiyalar qoshida alohida axborot-tahliliy tuzilmalar tashkil etish amaliyoti deyarli yo'q. Ularning biror bir "Aql markazi" bilan hamkorlik masalasi ham yetarli yo'lga qo'yilmagan.

O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan siyosiy partiyalarni vakillik demokratiyasi institutiga aylantirish uchun, eng avvalo, ularning ish samaradorligini oshirish, elektorat bilan ishlashda yangi, XXI asrga xos bo'lgan innovatsion mexanizmlarni qo'llash hamda partiyalararo sog'lom (konstruktiv) raqobat muhitini yaratish lozim.

Mamlakat ijtimoiy-siyosiy tizimi shaffofligi va legitimligini ta'minlash, eng avvalo, muxolifat partiyalarining shakllanishiga ham bog'liqdir. To'la ma'nodagi konstruktiv muxolifatgina mamlakatda ko'ppartiyaviylik tizimi, siyosiy raqobat va parlament demokratiyasini ta'minlashga qodir.

Bugungi kunda, siyosiy partiyalarni davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi dolzarb ijtimoiy-siyosiy va sosial-iqtisodiy masalalar borasida doimiy izlanishlar olib boradigan, muammolar yechimlari yuzasidan aniq va manzilli dasturlar ishlab chiqadigan va ularni hayotimizga tatbiq etishda ishtirok qiladigan "tahliliy markazlar"ga (Think tanks) aylantirish davrning o'zi taqozo etmoqda.

O'rganish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, siyosiy partiya bilan deputatning o'zaro aloqasini mustahkamlash borasida qonunchilikka bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarurati mavjud. Xususan, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida"gi[2] hamda "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi[7] qonunlarda:

- deputatning partiya oldidagi majburiyatlari, uning Qonunchilik palatasi, mahalliy Kengashda partiya manfaatlarini ifoda etish tartiblari (fraksiya nizomi, partiya guruhi nizomi), deputatni partiya bilan aloqasini uzganligi uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan ta'sirchan choralarni aniq belgilash;

- deputatning saylovchilar bilan uchrashuvlarida, shuningdek boshqa chiqishlarida partiyaviy nuqtai-nazardan yondashishi lozimligini mustahkamlash;

- deputatlar faoliyati samaradorligini oshirish uchun rag'batlantirish mexanizmlaridan keng foydalanish, xususan, mahalliy Kengashlardagi deputatlarga asosiy ish faoliyatidan olinadigan oylik ish haqiga qo'shimcha rag'batlantirish to'lash tartibini joriy etish lozim.

Shuningdek, "Xalq deputatlari mahalliy Kengashi deputatini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini va Senati a'zosini chaqirib olish to'g'risida"gi

qonunda deputatning uni deputatlikka nomzod qilib ko'rsatgan siyosiy partiya oldidagi o'z majburiyatlarini bajarmaganligi deputatni chaqirib olish uchun asos bo'lishi belgilangan. Bunda deputatning partiya oldidagi majburiyati sifatida "deputatning uni deputatlikka nomzod qilib ko'rsatgan siyosiy partiya oldidagi o'z majburiyatlarini bajarmaganligi" kabi umumiy normadan tashqari boshqa aniq majburiyatlar belgilanmagan. Shu sababli, deputatning partiya oldidagi majburiyatlarini qonunchilikda aniq qilib belgilash taklif etiladi.

Shu bilan birga, parlamentdagi deputat so'rovlarining kamayishi va siyosiy partiyalar o'rtasidagi aloqalarning ziddiyatli tabiatini tahlil qilish O'zbekistonning siyosiy tizimining yangi bosqichga o'tishidagi ayrim muammolarni yuzaga keltiradi. Siyosiy partiyalar o'rtasida mustahkam aloqalar o'rnatilmaganligi va partiyalar o'zaro hamkorlik qilishdan ko'ra raqobatga urg'u berishlari, parlamentdagi samarali ishni to'xtatmoqda. Bu, o'z navbatida, aholining parlamentga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yurtimizda siyosiy tizimni isloh qilish, partiyalar va deputatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yaxshilash uchun yanada chuqurroq tahlil va ijobiy o'zgarishlar zarur. Xorij tajribasidan foydalanish, masalan, partiyalararo hamkorlikni rivojlantirish va deputatlar faoliyatini jamoatchilik bilan yaxshiroq bog'lash, O'zbekistondagi siyosiy tizimning barqarorligi va demokratik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. **"Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni.** (1996). 26 dekabr. *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 04.07.2024 y., 03/24/934/0469-son.
2. **"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni.** (2004). 2 dekabr. *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 04.07.2024 y., 03/24/934/0469-son.
3. **"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni.** (2003). 29 avgust. *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 18.11.2024 y., 03/24/1002/0936-son.
4. **"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni.** (2002). 12 dekabr. *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 19.02.2024 y., 03/24/909/0133-son.
5. **"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni.** (2002). 12 dekabr. *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 19.02.2024 y., 03/24/909/0133-son.
6. **"O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni.** (2023). 18 dekabr, 5-modda, 1-qism. *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 19.12.2023 y., 03/23/883/0949-son.

7. **“Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.** (2004). 2 dekabr. *Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi*, 19.10.2024 y., 03/24/976/0833-son.
8. **Fraksiya faoliyati: 2023 yil yakunlari bo‘yicha eng muhim natijalar.** (2023). 29 dekabr. *Parliament of Uzbekistan*. URL: <https://parliament.gov.uz/oz/news/fraksiya-faoliyati-2023-yil-yakunlari-boyicha-eng-muhim-natijalar>
9. **Istiqboldagi rejalar belgilab olinmoqda.** (2023). *Parliament of Uzbekistan*. URL: <https://parliament.gov.uz/oz/news/istiqboldagi-rejalar-belgilab-olinmoqda>
10. **Jamiyat taraqqiyotida siyosiy partiyalarning o‘rni va roli.** (n.d.). *CyberLeninka*. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zhamiyat-tara-iyotida-siyosiy-partiyalarning-rni-va-rol>
11. **Jimin Party.** (n.d.). *Declaration*. URL: <https://www.jimin.jp/aboutus/declaration/>
12. **Oliy Majlis haqida.** (n.d.). *Parliament of Uzbekistan*. URL: https://parliament.gov.uz/media/post_attachments/1-qism.pdf
13. **Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O‘zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videosektor yig‘ilishidagi ma’ruzasi.** (2017). 13 iyul. *President.uz*. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/781>
14. **Sarhisob: Parlament faoliyatidagi muhim natijalar va ustuvor vazifalar.** (2024). *Parliament of Uzbekistan*. URL: <https://parliament.gov.uz/oz/news/sarhisob-parlament-faoliyatidagi-muhim-natijalar-va-ustuvor-vazifalar-2>
15. **Siyosat: O‘zbekiston Respublikasi siyosiy tizimining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari.** (n.d.). *UzAnalytics*. URL: <https://www.uzanalytics.com/siyosat/3225/>
16. **Surprisingly, UK think tanks don’t often communicate with elected officials.** (2015). *Democratic Audit*. URL: [https://eprints.lse.ac.uk/57676/1/democraticaudit.com-Surprisingly UK think tanks dont often communicate with elected officials.pdf](https://eprints.lse.ac.uk/57676/1/democraticaudit.com-Surprisingly%20UK%20think%20tanks%20dont%20often%20communicate%20with%20elected%20officials.pdf)
17. **UK Parliament.** (n.d.). *Members of Parliament and Lords: Party system*. URL: <https://www.parliament.uk/about/mps-and-lords/members/partysystem/>
18. **Uz24.** (n.d.). *Partiya: O‘zbekiston siyosiy tizimidagi o‘rni va rivojlanishi*. URL: <https://uz24.uz/uz/articles/partiya-2-24?ysclid=lvqhwlw4gy224206210>
19. **UzAUz.** (2023, dekabr 29). *Istiqloлга erishishdagi dastlabki qadamlarga oid ma’lumot*. Telegram kanal. URL: <https://t.me/uzauz/8942>
20. **UzLiDeP.** (n.d.). *"Xalq demokratik partiyasi faoliyati: 2023 yilgi yutuqlar"* [news article]. URL: <https://uzlidep.uz/news-of-party/15021>